


URBANIZATSIYALASHUV JARAYONIDA JAMOAT TRANSPORTNING TUTGAN O'RNI VA VAZIFALARI.

Raxmatova Gulhayo Erkin qizi.

Bugungi kunda dunyo aholising 50%dan ortig'i shaxarlarda istiqomat qilishmoqda. Aholi sonining ortib borishi doimiy va to'xtovsiz jarayon, bu esa shaxar transport tizimidan tobora murakkab muammolarni yechishni talab qiladi. Shaxar aholisining doimiy o'sish tendentsiyasi insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining muhim omilidir(1-rasm).



1-rasm O'zbekiston aholising 2017-2024 yillar oralig'idagi

shaxar va qishloq aholisi soni o'zib borishi. (Manba: <https://stat.uz/>)

Shaxarlar maydoni kengayishi bilan birgalikda, murakkab funkcionallik darajasi ham ortadi, masalan, ikki baravar katta shaxarda yashash tarzi odatda yashash standartining ko'tarilishiga ham olib keladi (iqtisodiyotning intensiv o'sishi), ish haqining 15% oshishi, jinoyat sodir bo'lishini 15%ga ortishi sababli politsiya xodimlarining 15%ga ko'payishini talab qiladi. Kattaroq shahardagi hayot, shuningdek, shahar turmushining yanada serharakat bo'lishi tufayli piyodalarning o'rtacha tezligi ham yuqoriroq bo'lishini anglatadi. Shahar jamoat transporti shahar aglomeratsiyalarining faoliyat yuritishi uchun asosiy shart hisoblanadi, chunki u jamiyatning normal ishlashi va iqtisodiyotning ravon rivojlanishini ta'minlaydi [1]. Shahar jamoat transporti normal ijtimoiy faoliyatni va iqtisodiy rivojlanishni

uzluksiz ta'minlashi uchun g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Bankovichning ta'kidlashicha, shaharlar hajmining kengayishi shahar va shahar atrofi jamoat yo'lovchi transporti tizimining ko'proq quyi tarmoqlarini joriy etishga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi [2]. Shahar yo'lovchi transporti tizimining samarali ishlashida uning tarkibiy qismlarining texnik va texnologik jihatdan muvofiqligi hamda o'zaro tashkiliy va tarif uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi [3]. Shuni ta'kidlash lozimki, transport xizmatining mavjud yoki ko'zlangan sifat darajasi bilan uning narxi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Bundan tashqari, transport tizimi iqtisodiy va umuman ijtimoiy tizimning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[4].

Shaharning o'sishi bilan birga, uning normal faoliyati va jadal iqtisodiy rivojlanishi uchun shahar transport tizimining ahamiyati ham mutanosib ravishda ortib boradi. Shaharning transport tizimini ko'pincha o'ziga xos "global" transport tizimiga qiyoslash mumkin (ayniqsa, gap ko'p millionli aholisi bo'lgan yirik shaharlarga ega metropoliten hududi haqida borganda). Shu sababli, uning ishlashi va rivojlanishini yaxlit transport tizimi nuqtai nazaridan kuzatish zarur. Transport tizimining samaradorligini (vaqt birligida tashilgan yo'lovchilar soni yoki bajarilgan transport ishlari bilan o'lchanadi) va iqtisodiy samaradorligini (moliyaviy holat) har bir transport tizimi doirasida kuzatish va tahlil qilish lozim. Shahar transport tizimining ishlashiga yaxlit yondashuv zarurati, boshqa tizimlar doirasida faoliyat yurituvchi transport tizimlarining o'zaro to'ldiruvchanligi, ularning turli texnik va texnologik xususiyatlari, shuningdek, transport imkoniyatlari, atrof-muhitga ta'siri va har bir transport tizimining barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog'liq. Transport tizimini boshqarish va rivojlantirishni modellashtirish jarayonidagi asosiy omil - bu muayyan transport tizimlarini birlashtirish orqali, mavjud bo'lgan va kutilayotgan transportga ehtiyojni ta'minlashdan iborat.

Transport tizimining maqsadi jamiyatning nafaqat kundalik ehtiyojini ta'minlash, balki uning uzluksiz va iloji boricha tezroq ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Shahar transport tizimining vazifasi esa o'z hududidagi mavjud transport talabini muayyan sifat darajasidagi mos transport xizmatlari bilan ta'minlashdir.



2-rasm. Toshkent, 2016-yil.

Transport tizimlarining muvofiqligi shahar yo‘l harakati tizimining optimal ishlashining asosiy sharti hisoblanadi. Turli omillarga (geografik joylashuv, tarixiy sharoitlar, joy reliefi va shaharning rivojlanish darajasi) qarab, rivojlangan jamoat transportiga ega shaharlarda bir vaqtning o‘zida bir nechta transport subtizimlari mavjud bo‘ladi. Transport rejalashtirish - transportga bo‘lgan talabning o‘shishini qondirish uchun transport tizimi quvvatlarini uzluksiz oshirish zarurati bilan belgilanadi. Transport rejalashtiruvchilari va menejerlari e‘tiborini nafaqat zarur transport infratuzilmasini oldindan ko‘rish va ta‘minlashga, balki transport xizmati foydalanuvchilarining talablarini ustuvorligini tan olgan holda ulardan maksimal darajada foydalanishga qaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Banister, “Transportni loyihalash,” Sidney Universiteti, 2001, 9-bet.
2. R. Bankovich, “Shahar jamoat transporti”, Beograd Universiteti, Beograd, 1982-yil, 184-212-betlar.
3. J. A. Dunn, “Driving forces - the automobile, its enemies and politics of mobility,” Sidney Universiteti, 1998-yil, 10bet.
4. R. Vikerman, “Optimal transport tizimlari konsepsiyasi,” George Mason Universiteti, 2001-yil, pp. 47-58-etlar.
5. D. A. Hensher va K. Button, Transport tizimlari va yo‘l harakatini nazorat qilish bo‘yicha qo‘llanma, George Mason Universiteti, 2001, 1-10-betlar.
6. <https://stat.uz> sayti.